

GANIYEV Avazbek Oybekovich,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islom tarixi va manbashunosligi
IRCICA kafedrasi dotsenti
E-mail: avazganiyev@gmail.com

**NISHONOVA Zarnigor
Raxmonberdiyevna,**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Tarix (Islom sivilizatsiyasi) 2-kurs magistranti
E-mail: Zarnigornishanova3@gmail.com

TURKISTONDAN TURKIYAGA MUHOJIRLIK YO'LLARI (1917-1924 YILLAR)

IMMIGRATION ROUTES FROM TURKESTAN TO TURKEY (1917-1924)

ИММИГРАЦИОННЫЕ ПУТИ ИЗ ТУРКЕСТАНА В ТУРЦИЮ (1917-1924 ГОДЫ)

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Sovet davrida Turkistondan Turkiyaga ko'chgan muhojir larning ko'chish sabablari, ularning bu yo'lda duch kelgan qiyinchiliklari va muhojir likda qanday hayot kechirishgani haqida ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib mavzuni atroflicha yoritishga harakat qilindi. Bu jarayon nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda ham turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Turkiya, Muxojirlar; qo'rboshi, Mustafo Kamol Otaturk, Sayyid Mubashshir Kosoniy, "O'zbek Diyasporasi", "Madaniyat va Yordam Jamiyati", "Yordam Jamiyati".

Abstract: In this article, an attempt was made to comprehensively cover the subject based on the information presented in scientific studies about the reasons for the migration of immigrants who moved from Turkestan to Turkey during the Soviet period, the difficulties they faced along the way, and how they lived as immigrants. This process is not only of historical

importance, but even today it plays an important role in strengthening the relations between the Turkic peoples.

Keywords: Turkestan, Turkey, Migrants, leader, Mustafa Kemal Atatürk, Syed Mubashshir Kosani, "Uzbek Diaspora", "Culture and Help Society", "Help Society".

Аннотация: В данной статье предпринята попытка комплексно осветить тему на основе представленной в научных исследованиях информации о причинах миграции иммигрантов, переселившихся из Туркестана в Турцию в советский период, трудностях, с которыми они столкнулись на этом пути, и как они жили как иммигранты. Этот процесс имеет не только историческое значение, но и сегодня играет важную роль в укреплении отношений между тюркскими народами.

Ключевые слова: Туркестан, Турция, мигранты, лидер, Мустафа Кемаль Ататюрк, Саед Мубашиш Косани, «Узбекская диаспора», «Общество культуры и помощи», «Общество помощи».

KIRISH

Sovet davri davlatchiligimiz tarixida muhim va murakkab davrlardan biri hisoblanadi. Turkiston hududida yashovchi turkiy xalq vakillaridan aksariyati Sovet Ittifoqining siyosiy va iqtisodiy bosimlari, milliy madaniyat va an'analarga bo'lgan tahdidlar sababli muhojirlik qismatiga ko'nib, o'z vatanlarini tark etib, turli davlatlarga ketishga majbur bo'lganlar. Bu borada Turkistonlik muhojir lar uchun tili, dini, va madaniyati jixatidan Turkiya yaqin va birmuncha qulayroq edi. Shu sababdan Turkiston muhojir larning ma'lum qismi Turkiyaga ko'chib o'tishga qaror qilganlar. Ushbu maqolada, Sovet davrida Turkistondan Turkiyaga ko'chgan muhojir larning ko'chish sabablari, ularning bu yo'lda duch kelgan qiyinchiliklari va muhojir likda qanday hayot kechirishgani haqida ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib mavzuni atroflicha yoritishga harakat qilindi. Bu jarayon nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi

kunda ham turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolaning asosiy qismini yoritishda va mavzu yuzasidan xulosa berishda quyidagi adabiyotlardan foydalanildi. Xususan: "O'zbekistonning yangi tarixi" ikkinchi kitob - ushbu kitobda, Sovet hokimiyati davrida Turkistonda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Sayyid Mubashshir Kosoniyning "Bir umrdir darbadar mulki jahon kezmoqdaman" nomli asarida Turkiston muhojir larining o'zga yurtlarga ko'chib o'tish jarayonini batafsil tasvirlaydi. U Mustafo Kamol Otaturkning afg'on elchisi bilan bo'lgan uchrashuvi va Turkiston muhojir lariga nisbatan g'ayriinsoniy munosabatni qoralashini ta'kidlab o'tadi. Bu xotiralar muhojir larning qiyinchiliklari va Turkiya hukumati tomonidan ko'rsatilgan yordamni yoritadi.

Erhan Yoska Gaziantep universiteti ijtimoiy fanlar jurnalida chop etilgan maqolasida 1931-1982-yillar davrida Turkiston dunyosidan Turkiyaga ko'chishlar haqida ma'lumot beradi. U Turkiya Respublikasining ilk yillarida milliy o'zlikni mustahkamlash va malakali kadrlarga ega bo'lish uchun turk millatiga mansub aholiga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi. Bu maqola Turkiston muhojir larining Turkiyaga ko'chib o'tish jarayonini va Turkiya hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Qahramon Rajabovning "Shermuhammadbek qo'rboshi" nomli risolasi - Shermuhammadbek qo'rboshining hayoti va faoliyatini yoritadi. Risolada Shermuhammadbekning Farg'onadagi istiqloqlilik harakatlari va uning o'zga yurtlardagi muhojir lik kechmishlari, xususan Turkiyadagi muhojir lik hayoti haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Orhan Kavuncu "O'zbek Diasporasi" nomli maqolasida Turkistonlik muhojir larning Turkiyada tashkil etgan jamoat tashkilotlari va madaniy markazlar haqida ma'lumot beradi. U Adanadagi Turkistonliklar "Madaniyat va Yordam Jamiyati", Istanbuldagi Turkistonliklar "Yordam Jamiyati" va boshqa tashkilotlarning faoliyatini yoritadi. Bu maqola Turkistonlik muhojir larning Turkiyada o'z madaniy va diniy meroslarini saqlab qolish uchun qilgan harakatlarini ko'rsatadi.

Shuningdek, maqola mavzusini yanada kengroq yoritishda bir nechta internet saytlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tarixiy tahlil usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chor imperiyasi tugatilgach, 1917-yil oktabr oyida Bolsheviklar hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Bu esa, o'z navbatida Rossiyaning barcha mustamlaka davlatlari qatori turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bolsheviklarning barcha davlatlarga hurriyat berilishi to'g'risidagi va'dalariga ishongan turkiston o'lkasi ziyolilari dastlab bu voqeani ijobiy qabul qildilar. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay bu va'dalarning hammasi sarob ekanligi aniq bo'lib qoldi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach Turkiston xalqlarining hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Jamoalashtirish, sanoat rivoji va madaniy inqiloblar natijasida ko'plab Turkistonliklar an'anaviy hayot tarzidan voz kechishga majbur bo'ldilar. Shuningdek, siyosiy, ta'qiblar va repressiyalar ham keng tarqalgan edi.

1930-yillarda Stalin davrida ko'plab ziyolilar, diniy rahnamolar va milliy yetakchilar "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilindi. Bu davrda ko'plab turkistonliklar qamoqqa olinib, surgun qilindi yoki qatl etildi. Bu siyosiy ta'qiblar va repressiyalar turkiston xalqining ruhiyatiga katta zarba berdi. Ushbu omillar ko'plab vatandoshlarimizni muhojir lik yo'lini tanlashga

majbur qildi. O'sha davrda Turkistonlik muhojirlar asosan Afg'oniston, Hindiston, Saudiya Arabistoni va Turkiyaga ko'chib o'tishga majbur bo'ldilar. Turkiya, aksar aholisi musulmon va madaniy yaqinligi tufayli, o'zbek muhojirlari uchun birmuncha ishonchli manzil bo'lib, shuningdek, Turkiya hukumati ham o'zbek muhojirlarini qabul qilishga tayyor edi. Bu haqida umrining ko'pgina qismi muhojirlikda kechgan Sayyid Mubashshir Kosoniy o'zining xotiralarida shunday yozadi.

“Yana o'z xotiralarimni davom etay. Shunday ko'rgiliklarga qaramay bizlar har qanday avvalgi muhojir ahliga nisbatan “baxtli” ekanmiz. Chunki, shu paytda yuqorida aytganim cho'lu biyobonlarga haydalish to'xtatilgan. Bilishimcha bunga bir sabab bor ekan. Turkiya Jumhuriyati Raisi Mustafo Kamol Otaturk Anqara shahrida afg'on elchisi Fayz Muhammadxonni huzuriga chorlab, afg'onlarning Turkiston muhojirlariga g'ayriinsoniy munosabatda bo'layotganidan g'azablanib, norozilik bayonoti bergan, o'tkazilayotgan zolimlik siyosatini qoralab: “Agar mamlakatingizda Turkiston musulmon muhojirlari uchun joy bo'lmasa, bizga topshiring!” degan. Bu gapni men Sayyid Muhiddinxon to'raning xizmatlarida bo'lgan chog'imda eshitgan edim. Shu masala haqiqat bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Chunki afg'on hukmdorlari yangi kelgan Turkiston muhojirlarini Dahana-i G'urriy degan mintaqaga (Xonoboddan 110 kilometr uzoqlikdagi joy) surgun qilishga qaror qilgan ekan” [6:26].

Gaziantep universiteti ijtimoiy fanlar jurnali 2023-yil maxsus sonida Erjiyes universiteti Adabiyot fakulteti tarix bo'limi o'qituvchisi, Erhan Yoska “Turk dunyosidan Turkiyaga ko'chishlar: 1931-1982-yillar davriga sharh” nomli maqolasida bu haqida quyidagicha ma'lumotlar keltirgan:

“Imperiyaning tugashidan to Turkiya Respublikasi tashkil etilgan dastlabki yillarigacha bo'lgan davrda uzoq davom etgan urushlar tufayli

aholi soni qisqardi. Bu jarayon Turkiyaga iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy mudofaa nuqtai nazaridan salbiy ta'sir ko'rsatdi. Turkiya Respublikasining ilk yillarida yangi davlat va yangi tuzumning milliy o'zligini mustahkamlash, malakali kadrlarga ega bo'lish va turk xalqini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan qutqarish uchun turk millatiga mansub, madaniy jihatdan bir xil aholiga muhtoj edi [1:2]. Keyinchalik Mustafo Kamol Posho bu ehtiyojni qondirdi. “Darhaqiqat, mamlakat aholisining soni afsuslanarli darajada, chegaralarimizdan tashqarida yashayotgan bir xil millat va madaniyatga mansub odamlarni olib kelib, ularni tinch holatda turmush kechirishiga yordam berish orqali aholi sonini ko'paytirish kerak. Rossiyadan olib kelish imkoni bo'lsa, u yerdan ham olib kelamiz” [2:53-54]. Mustafo Kamol Posho tomonidan bu so'zlar bilan ilgari surilgan aholi siyosatiga muvofiq, turk ziyolilari va turkiy madaniyatli muhojirlarni ko'chirish va joylashtirish maqsad qilingan. Shu maqsadda Turkiya Respublikasining turar-joy siyosatining bosh asosini tashkil etuvchi 2510-sonli qaror qonuni kuchga kirdi. Ushbu qonun milliy tuzilmani himoya qilishga, aholining sifat va sonini yaxshilashga qaratilgan. Shu maqsadda ushbu qonun muhojirlarni Turkiyaga qabul qilish shartlarini belgilab berdi”.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Sayyid Mubashshir Kosoniyning so'zlari haqiqat ekanliginida kidlab turibdi. Darhaqiqat o'sha davrda O'zbek, Qozoq, Qirg'iz, Turkman, Tojik millatiga mansub Turkistonning ko'plab musulmon aholisi shuningdek Sharqiy Turkistonlik Uyg'urlardan ko'pchiligi Turkiyaga kelib joylashdilar. Shu o'rinda bir savol, tug'iladi. Muxojirlarning Turkiyaga kelishi va joylashish jarayonlari qanday kechgan edi? Masalaning bu jihatini kengroq yoritish uchun ushbu mavzu doirasida yurtimizda va Turkiyada olib borilgan tadqiqotlarga murojaat qilamiz. Albatta, bu jarayon qiyinchilik bilan amalga oshirilgan.

Maqola bilan tanishish jarayonida mavzuga oid yana ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Maqolada Turkiston muhojir larining Turkiya chegaralaridan o'tish jarayoni bilan bog'liq statistik ma'lumotlar ham keltirilgan.

“Ikkinchi jahon urushi oldidan bolsheviklar boshqaruvining sovetlashtirish siyosati qarshisida turk xalqi va jamoalari fursat bo'lganda Turkiyadan boshpana so'rashga harakat qildilar. Shu nuqtai nazardan, arxiv hujjatlarida aks ettirilgan ommaviy ko'chish harakatlaridan biri 1931-yilda Qizilchakchak hududida sodir bo'lgan [9:252]. Turkiyadan boshpana olmoqchi bo'lgan turk ziyoli muhojir lari guruhini qo'lga olishga urinayotgan Qizil Armiya askarlari Turkiya chegarasini 3 marta kesib o'tib, turk askarlari bilan to'qnashdilar [4:155]. Yana 05.11.1931-yilda Rossiya tarkibidagi Kamarli, va boshqa bir nechta qishloqlardan Aras daryosidan o'tishga uringan 124 nafar muhojirlarga qarata o't ochilgan va kurashdan keyin atigi 38 kishi Turkiyadan boshpana so'rashga muvaffaq bo'lgan [9:255] bolsheviklar tomonidan turk ziyolilariga nisbatan tazyiq kuchaygani sari Turkiyaga boshpana so'raganlar soni ham ortdi. 1933-yili Kars gubernatorligi turk millatiga mansub 1745 qochqinning sovetlardan qochib Turkiyadan boshpana topgani haqida xabar berdi. Sovet ma'muriyati Turkiya tomon migratsiya harakatlarini to'xtatmoqchi bo'lib, 1933-yilda Turkiya bilan chegara buzilishlarini hal qilish uchun qo'shma komissiya tuzishga qaror qildi [9:256]. Chegarada qizil armiya askarlari nazorati kuchaytirildi [4:156]. Qayd etilgan chora-tadbirlarga qaramay, Sovet Ittifoqidan Turkiyaga migratsiyaning oldini olish mumkin emas edi. Ikkinchi Jahon urushidan oldin migratsiya yo'li bilan boshpana izlab Turkiyaga kelgan, ammo arxiv hujjatlarida aniq millati ko'rsatilmagan 12477 nafar qochoqning arizalari 1938-yil 18-martdan 1939-yil 14-martgacha bo'lgan davrda Vazirlar Kengashi tomonidan muhokama qilindi

va qabul qilindi [9:257]. Muhokama qilingan qochqinlardan tashqari, 1938-yil 1-aprelda 51 nafar Sovet ittifoqi turklarining va 1938-yil 18-mayda 38 nafar shaxsning arizalari 1312-sonli Qonunning 5-moddasiga ko'ra Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilindi [9:257].

Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, Turkistonlik muhojir lar Turkiyaning turli xududlariga joylashdilar va u yerlarda hayotlarini davom ettirishga harakat qildilar. Bu borada Turkistonning yetakchi shaxslari masofadan turib harakat qilganlar. Ana shunday shaxslardan biri Shermuhammadbek qo'rboshi hisoblanadi. Vatanimiz tarixida 1917-yildan keyin istiqlolchilik harakatlari Turkiston o'lkasi bo'ylab keng tarqaldi. Ammo bu harakatlar hech qanday natija bermadi. sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan ajdodlarimizning ko'plari shahid bo'ldi, ayrimlari esa hayotlarining qolgan qismini o'zga yurtlarda muhojir likda o'tkazishga majbur bo'ldilar. Turkistonda Sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan taniqli namoyandalardan biri marg'ilonlik Shermuhammadbek qo'rboshi (1893-1970) sanaladi. U 1918-1922-yillarda Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakatining yetakchi rahbarlaridan biri edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Turkiston ozodligi uchun olib borilgan barcha harakatlar besamar ketdi. Bu yo'lda ayovsiz kurash olib borgan Shermuhammadbek qo'rboshi ham hech qanday natijaga erisha olmagach ilojisizlik natijasida 1927-yilda ukasi Nurmuhhammadbek qo'rboshi bilan birga Afg'onistonga ketishga majbur bo'lgan.

Shermuhammadbek qo'rboshining Farg'ona-dagi istiqlolchilik harakatlari, shuningdek uning muhojir lik hayoti haqida ma'lumot beruvchi Qahramon Rajabovning “Shermuhammadbek qo'rboshi” nomli risolasidan ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin. Quyida ushbu risoladan Shermuhammadbek qo'rboshining boshidan kechirgan muhojir lik hayotidan qisqacha ma'lu-

mot keltirib o'tamiz. "Aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbekning Afg'onistonda muhojirlikda o'tgan hayotlari ancha mashaqqatli bo'lgan. Kobulning rasmiy hukumati Sovet Rossiyasi tazyiqi bilan ularga noxush munosabatda bo'lgan. Shermuhammadbek keyinchalik ma'lum muddat Hindistonda, 1951-1955-yillarda Pokistonning Peshovar shahrida yashadi. Tarixchi olim R.Shamsutdinovning yozishicha, 1951-yili Afg'onistonda yashagan turkistonlik muhojirlar Turkiyadan siyosiy boshpana olishdi. Aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbeklar bu ishga bosh-qosh bo'ldilar. Shermuhammadbek vaqtincha Peshovarda, Nurmuhammadbek esa Karochida yashab, 1111 kishini Turkiyaga jo'natishdi. Nihoyat, 1955-yili Shermuhammadbek o'z oilasi bilan Turkiyaga keldi va to umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida hayot kechirdi. 1970-yil 10-martda Shermuhammadbek, 1984-yil 10-yanvarda Nurmuhammadbek Adana shahrida vafot etishdi. Shermuhammadbekning o'limi turkistonlik muhojirlar uchun katta yo'qotish bo'ldi. O'sha kunlari Adanada motam e'lon qilindi. Uning dafn marosimiga minglab kishilar yig'ildi" [6:30].

Sovet davrida yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra turkiyaga muhojir bo'lib ketishga majbur bo'lgan turkistonliklar Turkiyaning turli xil hududlariga joylashib ijtimoiy hayotda faol bo'lishga harakat qildilar. Ular orasida turli xil sohalarda faoliyat yuritib ijobiy natijalarga erishganlari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ular yangi muhitga moslashish, o'z madaniyatlarini saqlab qolish va yangi avlodlarga o'z an'analari yetkazish uchun kurashdilar. Turkistonlik muhojirlar Turkiyada o'zlarining madaniy va diniy meroslarini saqlab qolish uchun turli jamoat tashkilotlari va madaniy markazlar tashkil etdilar. Bu tashkilotlar orqali ular o'z tillarini, urfodatlarini va diniy marosimlarini davom ettirishga harakat qildilar. Shuningdek o'z navbatida Turkiya hukumati ham Turkistonlik muhojirlarga

yordam berish uchun turli dasturlarni amalga oshirdi. Bu yordamlar muhojirlarning yangi hayotga moslashishiga katta yordam berdi.

"1950-yillarda tashkil etilgan Adanadagi Turkistonliklar Madaniyat va Yordam Jamiyati, ko'pchiligi o'zbek bo'lgan, Adanadagi qozoq, uyg'ur, tojik etnik guruhlariga mansub Turkistonlik muhojirlarni o'z ichiga oladi. Har yili turli kunlarda yig'ilib, qo'rboshi yod etish uchrashuvi, Navro'z bayrami, an'anaviy Palov Shodiyonalari, Gap-Gashtaklar kabi tadbirlar o'tkazadi. Istanbuldagi Turkistonliklar Yordam Jamiyati ham 1954-yilda tashkil etilgan bo'lib, 1984-yildan keyin Turkistonliklar Madaniyat va Ijtimoiy Yordam Jamiyati nomi bilan bugungi kunda ham faoliyatini davom ettirmoqda. Vatandoshlar o'rtasida tanishuv va aloqani ta'minlab, Navro'z, diniy bayramlarni nishonlash, sayohatlar, Gap-Gashtak kabi turli tadbirlar tashkillashtiradi. Bu ikkisidan tashqari, yaqinda faoliyat boshlagan yana ikki jamiyat haqida ham aytib o'tish kerak. Biri Yosh Turkistonliklar Jamiyati, ikkinchisi Xalqaro Turkistonliklar Hamkorlik Jamiyati (UTD-DER). Yosh Turkistonliklar Jamiyati, nomidan ham ko'rinib turibdiki, asosan yoshlarga qaratilgan faoliyat olib boradi, yosh turkistonliklarning birlarini va o'z yurtlarini tanib, yaqinlashishlariga qaratilgan ishlarni tashkillashtiradi. UTD-DER ham asosan, so'nggi yillarda ayniqsa Tojikiston va Qirg'izistondan kelgan o'zbeklarning Turkiyada yashash va viza, sog'liqni saqlash muammolari bilan shug'ullanadi. Shuningdek, ularning turar joy masalalaridan tortib bolalarning ta'lim olishigacha bo'lgan ijtimoiy masalalar bilan ham shug'ullanadi.." [3:35].

XULOSA

Sovet davrida Turkiston muhojirlarining Turkiyaga ko'chishlari murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bu davrning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq edi.

Sovet Ittifoqining qattiq siyosati, repressiyalari va diniy erkinliklarning cheklanishi natijasida ko‘plab Turkiston aholisi o‘z vatanlarini tark etishga majbur bo‘ldi. Muxojirlar orasida ziyolilar, diniy arboblal, savdogarlar va oddiy fuqarolar ham bor edi. Ularning asosiy manzillaridan biri Turkiya bo‘lib, bu mamlakat o‘zining madaniy, diniy va til jihatidan yaqinligi sababli muhojir lar uchun qulay joy edi. Muxojirlar Turkiyada yangi hayot boshlash uchun ko‘plab qiyinchiliklarga duch keldilar. Ular yangi muhitga moslashish, iqtisodiy jihatdan barqarorlikka erishish va o‘z madaniy va diniy meroslarini saqlab qolish uchun katta sa’y-harakatlar qildilar. Bu jarayon davomida muhojir lar o‘zlarining an’anaviy qadriyatlarini saqlab qolishga intildilar va yangi avlodlarga o‘z meroslarini yetkazishga harakat qildilar. Turkiston muhojir larining Turkiyaga ko‘chishi nafaqat ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamladi, balki madaniy va ijtimoiy almashinuvni ham kuchaytirdi. Muxojirlar Turkiya jamiyatiga o‘zlarining boy madaniyati, san’ati va ilm-fani bilan hissa qo‘shdilar. Ularning ko‘chishi natijasida Turkiyada Turkiston madaniyati va an’analari keng tarqaldi va bu ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy aloqalar yanada, mustahkamlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Coşkun K. Özbekistan’in türk dünyasındaki yeri, 2022. // <https://www.21yyte.org/tr/merkezler/bolgesel-arastirma-merkezleri/orta-asya-arastirmalari-merkezi/ozbeki-stan-in-turk-dunyasindaki-yeri>
2. İnan A. Atatürk ve Türk Kadın Haklarının Kazanılması, 1982, 53-54-betlar.
3. Kavuncu O. O‘zbek diasporasi // Asya Araştırmaları Uluslararası Sosyal Bilimler Dergisi, 2018. – B. 34-35.
4. Kose I. Boraltan Faciası: Türk Kökenli Sovyet Vatandaşı Mültecilerin Sovyetler Birliği’ne İadesi (1945). Atatürk Araştırma Merkezi Başkanlığı, 2016, – B. 156.
5. Nazliog‘lu, E. Gaziantep University Journal of Social Sciences 2023 Special Issue 251-2692. – B. 57.
6. Rajabov Q. Shermuhammadbek. – Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2011. – B. 29-30.
7. Sayyid Mubashshir Kosoniy. Bir umurdir darbadar mulki jahon kezmoqdaman. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 26.
8. O‘zbekistonning yangi tarixi: ikkinchi kitob. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida./ Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2000. – B. 26.
9. Yoska, E. (2023). Türk Dünyasından Türkiye’ye Yapılan Göçler: 1931-1982 Dönemi İncelemesi. Gaziantep University Journal of Social Sciences, 22(Cumhuriyet’in 100. Yılı), 251-269. <https://doi.org/10.21547/jss.1351018>
10. Tolkun, S. (2017). “Adanalı Türkistanlılar” Şiiri. Uluslararası Beşeri Bilimler Ve Eğitim Dergisi, 3(2), 1-28betlar.